



## BUYUK OLIM ABDULLA AVLONIYNING HAYOTI, IJODI VA ASARALARIDA ILM-MA'RIFAT VA TARBIYA MASALALARI

### Kurtbayeva Ogulsapdi Xemra gizi

*Ajinyoz nomidagi NDPI Boshlang'ich ta'lim fakulteti 2- kurs talabasi*

**Аннотация:** *Взгляды Абдуллы Авлони в сфере образования тесно связаны с психикой, образом жизни, национальными ценностями узбекского народа, изучение того, служил ли он национальной школой и ценным ресурсом, становится требованием времени.*

**Kalit so'zlar:** *Abdulla.Avloniy, birinchi muallim, " turkiy Guliston yoxud axloq", ilmi - ma'rifat, tarbiya, XX asr,*

Abdulla Avloniyning hayoti va ijodi haqida maktab darsliklarida ham keng berilgandir. O'zbek adabiyotining buyuk allomasi – Avloniy hayoti va ijodining yorqin qirralarini, uning pedagogik faoliyatini, adabiyotga qo'shgan hissasini yanada kengroq ochib beradigan bo'lsam, Avloniy yosh avlodga nafaqat, yoshi kattalarga ham ajablanarli xikmatli so'zlari bilan tarbiyalab kelmoqda.

Abdulla Avloniy xalq orasida ilg'or fikrlarni tarqatishda, ilm va ma'rifatni tashviq qilishda gazeta, jurnallarning roli katta ekanligini juda yaxshi bilgan. Abdulla Avloniy hayotimizda bo'lmasa ham, hamon tilimizda ismlari aytiladi, buning sababi ham o'zining mehnat sevarligi, yosh bolalarni to'g'ri yo'lga bo'shlashga yordam beradigan xikmatli so'zlaridir. Barkamol va har tomonlama salohiyatli yoshlarni tarbiyalash masalasi har bir ijodkor asarlarining bosh g'oyasi sanaladi. Bolaning shaxs sifatida voyaga yetishi eng birinchi oilaga borib taqaladi. U asosan oila muhitida tarbiyalanib, inson sifatida shakllanadi. Tarbiya esa hayotning eng muhim tayanchi sanaladi. Har bir yosh bolalarni shunday tarbiyalash zarurki, toki u yaxshi o'qishi bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilishi kerak. Odob-axloq, tarbiya tushunchalarini o'z asarlarining asosiy poydevori sifatida ilgari surgan, o'zbek dramaturgiyasi va teatrining yangicha maorifi va matbuotining asoschilaridan sanalmish Addulla Avloniy 1878-1934 yillarda yashab ijod etgan. Arab va fors tillarini yoshlikdagi mustaqil mutolaa vaqtida egallagan. Hijron taxallusi bilan she'rlar bitgan. Avloniy matbuot ishlarida faol ishtirok etish bilan birga «Adabiyot yoxud milliy she'rlar» hamda «Birinchi muallim», «Turkiy guliston yoxud axloq», «Ikkinchi muallim» kabi darslik va o'qish kitoblarini yaratgan. Adibning «Ikkinchi muallim» kitobi «Birinchi muallim» kitobining uzviy davomidir. Mazkur kitob maktabni olqishlovchi she'r



bilan boshlanadi. Ijodkor o'z she'rida maktabning ulug' dargoh ekanligiga urg'u beradi:

Maktab sizni inson qilur,  
Maktab hayot ehson qilur  
Maktab g'ami vayron qilur  
G'ayrat qilib o'qing o'g'lon!  
Maktabdadur ilm-u kamol  
Maktabdadur husn-u hilol  
Maktabdadur milliy xayol  
G'ayrat qilib o'qing, o'g'lon!

She'rdagi maktab tinchlik, omonlik uyi, hayot manbai, qalblarga yaxshilik, ravshanlik keltiruvchi joy sifatida tasvirlanishi bilan birga, u axloq-odob uyi, Allohning ehsoni va bir ajib gulshan sifatida talqin etiladi. Abdulla Avloniyning pedagogikaga oid asarlari katta ahamiyatga molik. XX asr boshlaridagi pedagogik fikrlar taraqqiyotini o'rganish sohasida uning "Turkiy guliston yoxud axloq" asari shular jumlasidandir. Bu asar axloqiy va ta'limiy tarbiyaviy asar bo'lib, unda insonlarni "yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlardan qaytaruvchi" bir ilm-axloq haqida fikr yuritiladi. Shu jihatdan bu asar o'ziga xos tarbiyaviy asar hisoblanadi. Abdulla Avloniy pedagog sifatida bola tarbiyasining roli haqida fikr yuritib "Agar bir kishi yoshligida nafs buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo'lib o'sdimi, Allohu akbar, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq yerdan turub yulduzlarga qo'l uzatmoq kabidur", -deydi. Uning fikriga ko'ra, bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va bolaning atrofidagi kishilar g'oyat katta ahamiyatga egadir. Ayni zamonda muallif ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ham ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidur" - deydi.

Abdulla Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" kitobida ma'rifatparvalik g'oyalarini targ'ib qiladi va unda ilm to'g'risida shunday deydi: "Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat oliy, muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o'z ahvolimini, harakatimizni oyina kabi ko'rsatur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur...". Avloniy ilmni umuman emas, balki uning amaliy va hayotiy foydalarini aytib, "Bizlarni jaholat, qorong'ulikdan qutqarur. Madaniyat insoniyatni ma'rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe'llardan, buzug' ishlardan qaytarur, yaxshi xulq va odob sohibi qilur... alhosil butun hayotimiz, salomatimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himatimiz, g'ayratimiz, dunyo va oxiratimiz ilma bog'lidur". Avloniy o'zining asarlarida ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo'lida qo'llanmasa, u o'likdir degan



fikrlarini aytgan. Shuning uchun u yoshlarni ilm olishga uni sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini yechishga, kitob mutolaa qilishga chaqiradi

Xulosa qilib aytganda, Avloniy ijodiy merosi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya g'oyasining targ'ibotchisidir. Uning asarlarida ilgari surilgan ta'lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma'naviyatimiz rivojlanishida qimmatli bir manba bo'lib xizmat qiladi. Bu ulug' adib ijodi, amaliy faoliyati bugungi kun yoshlarimiz uchun ibrat maktabi, desak adashmaymiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulla Avloniy..Turkiy guliston yoxud axloq – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 96. 6. 24-bet

2. Shavkat Mirziyoyev.O'qituvchi va murabbiylar – yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir. O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrigi,» Xalq so'zi», 2020-yil 1-oktyabr. № 207. (7709) 3-bet.

3. „Pedagogika“ M.X.Toxtaxodjayeva , S.Nishonova . T.2010

4. Internet. Uz

5. Baxtiyor.uz